

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc 02/05.05.2023.K/T35.02
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

ERNAZAROV UMID RUSTAMOVICH

**OKSIDLANISH POTENSIALI NAZORATI OSTIDA RENIY
BIRIKMALARINING ERISHI VA BOYITILISHI**

02.00.19 – Kamyob, nodir va radioaktiv elementlarning kimyoviy texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Ernazarov Umid Rustamovich

Oksidlanish potentsiali nazorati ostida reniy birikmalarining erishi va boyitilishi..... 3

Эрназаров Умид Рустамович

Растворение и концентрирование рения под контролируемым окислительным потенциалом 21

Ernazarov Umid Rustamovich

Dissolution and concentration of rhenium under controlled oxidation potential 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 42

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc 02/05.05.2023.K/T35.02
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

ERNAZAROV UMID RUSTAMOVICH

**OKSIDLANISH POTENSIALI NAZORATI OSTIDA RENIY
BIRIKMALARINING ERISHI VA BOYITILISHI**

02.00.19 – Kamyob, nodir va radioaktiv elementlarning kimyoviy texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5610. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Guro Vitaliy Pavlovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Daminova Shahlo Sharipovna
kimyo fanlari doktori, professor

Sharafutdinov Ulugbek Ziyatovich
texnik fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

Toshkent kimyo-texnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning «02» dekabr 2025 yil soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90). ionx@academy.uz

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (99 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «12» noyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «12» noyabrda № 99 - raqamli reestr bayonnomasi).

N. X. Usanbaev

Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

J.S. Shukurov

Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

Sh.S. Namazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi bir martalik ilmiy
seminar raisi t.f.d., professor, akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda nodir, tarqoq va rangli metallar birikmalari kabi qimmatbaho komponentlarni o‘z ichiga olgan texnogen xomashyolarni qayta ishlashga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga katta e‘tibor qaratilmoqda. Reniy odatda mis-molibden rudalari tarkibida yo‘ldosh element sifatida uchraydi. Reniy nafaqat ushbu rudalarning boyitilishi jarayonida, balki molibden ishlab chiqarish natijasida hosil bo‘ladigan texnologik shlamlarda, shuningdek, volfram-reniy (W–Re) va nikel-reniy (Ni–Re) asosidagi qotishmalarni ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan sanoat chiqindilarida ham mavjud bo‘ladi. Bunday xomashyolardan reniyni chuqur qayta ajratib olish va uni to‘liq o‘zlashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jaxonda reniy tarkibli mis-molibden rudalarini va texnogen chiqindilarni samarali qayta ishlash texnologiyasini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, sorbentning texnologik eritma bilan o‘zaro ta’sirdagi holati nazorat qilindi va uning barqarorligi baholandi; eritmaning organik birikmalar bilan ifloslanishi natijasida ion almashinish sorbentining ishchi resursi kamayishi, shuningdek, reniy tarkibli qotishmalarni ishlab chiqarish natijasida hosil bo‘ladigan sanoat chiqindilaridan reniyni qayta tiklashda alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda reniy tarkibli xomashyoni qayta ishlashning gidrokimyoviy texnologiyalari nazariyasi va amaliyotida reniy tarkibli nodir metallar rudalari hamda texnogen xomashyolardan reniyni to‘liq ajratib olish texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Bu bosqichlarga oksidlovchi sharoitda kuydirish, kuyindini tanlab eritish va kekni ajratib olish kiradi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining uchinchi yonalishida “...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish...”¹ ga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada mahalliy xom ashyodan reniyni ajratib olishning samarali usullarini yaratish, yo‘qotishlarini bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4124-son “Kon-metallurgiya tarmog‘i korxonalarini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 26-maydagi PQ-4731-son “Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-maydagi PQ-182-son “Sanoat uchun muhim bo‘lgan minerallarning xomashyo bazasini shakllantirish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi¹ Farmoni

shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning VII. "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ilmiy-texnik adabiyotlarda Re tarkibli metall xomashyosini va tarkibida reniy mavjud bo'lgan texnologik chiqindilarni qayta ishlaga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng yoritilgan. G. Rashed, M.A. Hanna, L.A. Rosocha, G.K. Anderson, W.H. Glaze, F.J. Beltran, T.Tuhkanen, V.S. Mishra, V.V. Mahajani va boshqa yetakchi olimlarning ilmiy maktablari tomonidan olib borilgan. Jahon amaliyotida reniy kimyosi va metallurgiyasi sohasida molibden rudasining sulfidli konsentratlarini kuydirish pechlaridan chiqadigan gazlardan reniy yetti oksidini ajratib olish usullarini taklif etgan.

Respublikada reniy kimyosi va texnologiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar V.P. Guro, I.S. Asadov, R.D. Allabergenov, X.T. Sharipov, K.S. Sanaqulov, B.I. Polyakov va G.A. Tsiganov ishlarida aks etgan. Ular tomonidan reniyni tabiiy rudalar va texnogen chiqindilardan ajratib olish, gidrometallurgik va sorbsion usullar bilan boyitish, shuningdek, selektiv ajratish texnologiyalarini ishlab chiqish yo'nalishlarida muhim tadqiqotlar olib borilgan.

Ammo, muayyan natijalarga erishilgan bo'lsa-da, ilmiy-texnik adabiyotlarda reniyni ajratib olishning yangi usullarini joriy etish, tarkibida reniy mavjud bo'lgan texnologik eritmadan organik qo'shimchalarni yo'qotish, Re tarkibli metall xomashyosini anodli eritish bo'yicha ilmiy ishlar o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo institutining 2020-yil 22-maydagi 20-02A/63-2215-top-sonli "Olmaliq KMK" AJ molibden sanoat mahsuloti kuyundisini qayta ishlash jarayonida oltin va kumushning qaytmas yo'qolishlar me'yorini ishlab chiqish" mavzusidagi (2021-2023-yillar) xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi organik ifloslantiruvchi moddalaridan tozalangan mahsulot eritmasidan Re(VII) ionlarini SIM 202 markali ion almashinish sorbentida samarali konsentratsiyalash, shuningdek, reniy tarkibli metall xomashyoni anodli eritish jarayonini redoks-potensial va anod sirtidagi elektroximik parametrlarni nazorat qilgan holda optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

SIM 202 Purolite ion almashinish sorbentining ishchi resursining kamayishiga mahsulot eritmasida mavjud bo'lgan organik birikmalar sabab bo'layotganini inobatga olgan holda, ushbu ifloslantiruvchi moddalarning nazorat qilinadigan redoks-potensial ostida oksidlanib parchalanishi orqali eritmadan samarali tozalanish usullarini tahlil qilish;

sorbentning texnologik eritma bilan bevosita o‘zaro ta’siri davomida uning funksional holatini monitoring qilish va barqarorligini baholash;

Re(VII)-ionlari sorbsiyalanishidan oldin mahsulot eritmasining oksidlanish-qaytarilish potentsiali (OQP) ni nazorat qilish;

mahsulot eritmasidagi organik birikmalarni destruksiyalash samaradorligini aniqlash;

eritmalaridagi organik ifloslantiruvchilarni oksidlovchi usul bilan destruksiyalash samaradorligini o‘rganish uchun ikki xil konstruksiyadagi tajriba qurilmalarini ishlab chiqish va ularni amaliy sinovdan o‘tkazish;

“Nodir metallarni qayta ishlash sehi” “NMQIS” mahsulot eritmasini organik qo‘shimchalardan tozalash texnologiyasini ishlab chiqish va sinab ko‘rish;

Reniy tarkibli qotishmalarni ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan sanoat chiqindilaridan reniyni ajratib olish va qayta tiklash texnologiyasini ishlab chiqish hamda kaliy perrenatni ammoniy perrenatga aylantirish;

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ (“O‘zTMK” AJ) ning Mo, Re, W-Re, Mo-Re qotishmalarini elektrolit eritmalarida anodli eritishning usuli va rejimlarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mis boyitish fabrikasining molibden tarkibli sanoat mahsuloti, kuydirish pechi skrubberidan olingan reniy tarkibli absorbat va reniy tarkibli sanoat chiqindilari tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti molibden oraliq mahsulotini kuydirish jarayonining texnologik eritmalaridagi organik birikmalarining oksidlanish va parchalanishi qonuniyatlari, hamda nazorat qilinadigan oksidlanish-qaytarilish potentsiali ostida texnologik eritmalaridan Re(VII) ionlarini ajratib olish jarayonining maqbul parametrlari va sharoitlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini atom-absorbsion, optik emissio, IQ-spektrometriya, potensiometriya, rentgenofluoressent tahlil usullaridan foydalangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

molibden sanoat mahsulotini kuydirish uchastkasidagi reniy saqllovchi eritmalaridagi organik aralashmalarni ozonlash va elektrokimyoviy oksidlash orqali tozalash usullari ishlab chiqilgan;

eritmalaridagi organik ifloslantiruvchilarni oksidlash usuli bilan destruksiyalash samaradorligini aniqlash maqsadida ikki xil konstruksiyadagi tajriba qurilmalari ishlab chiqilgan;

Re-tarkibli suv tizimlarini organik aralashmalardan tozalashning permanganat usulida kaliy ionlari va marganes dioksidi hosil bo‘lishi shaklida kamchilik aniqlangan, ozonlash va elektr oksidlash usullarida esa bunday kamchilik mavjud emasligi aniqlangan;

sulfidli rudalar va texnogen reniyli xomashyoni qayta ishlashda elektrogidrometallurgik jarayonlarning o‘ziga xosligi aniqlanib, ilmiy jihatdan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Re tarkibli tizimni organik aralashmalardan tozalashda ozonlash va

permanganat bilan tozalash jarayonlari ishlab chiqilgan;

ozonlangan va elektrooksidlangan reniy tutgan mahsuldor eritmani, organik moddalardan tozalashda Purolite SIM 202 sorbenti ish unumdorligini uzaytiradi, reniyning barcha mavjud shakllarini Re (VII) ning yuqori oksidlanish darajasiga o'tkazish hisobiga Re ni ajratib olish 97-98 foizga erishilganligi isbotlangan;

ishqoriy elektrolitda W-Mo, W-Re va Mo-Re metall qotishmalari chiqindilarini elektrokimyoviy qayta ishlash usuli asosida reniyni selektiv ravishda ajratib olish jarayoni ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Texnologik eritmalarini organik aralashmalardan tozalash va tarkibida reniy mavjud bo'lgan xom ashyoni qayta ishlash jarayonlarining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari "Olmaliq KMK" AJ va "O'zTMK" AJ tajriba qurilmalarida sinovdan o'tkazilib, natijalar respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati: reniy tarkibli mahsulot eritmasini tozalash va reniyni texnogen xom ashyodan ajratib olish jarayonlarini nazorat qilinadigan redoks potentsiali ostida o'tkazishning afzalliklari asoslanadi. Bu jarayonlar ozonlash va elektr oksidlanish (OQP +850 dan +1200 mV gacha bo'lganda) orqali amalga oshiriladi. Bunda organik birikmalar oksidlanadi, ammo atrof-muhit K⁺ ionlari va MnO₂ bilan ifloslanmaydi. Ushbu usul permanganat texnologiyasiga xos bo'lgan kamchiliklardan xoli bo'ladi. Shuningdek, reniy asosidagi metall qotishmalarining anod erishi jarayonida, xrom-kumush elektrodga nisbatan anod potentsiali kamida +900 mV bo'lganda, bu jarayon yanada samaraliroq bo'lishi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Re tarkibli mahsulot eritmalarini organik ifloslantiruvchilardan tozalashning yuqori samaradorligiga erishishda, shuningdek, reniy asosidagi metall qotishmalarni ishlab chiqarishning texnogen chiqindilaridan reniyni ajratib olishda namoyon bo'ladi. Bu jarayonlar, mos ravishda, reniyni tozalash va qayta tiklash orqali, muhitning oksidlanish-qaytarilish potentsiali nazorati ostida amalga oshirishi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahsulot Re-eritmasidagi organik aralashmalarining oksidlanish yo'li bilan parchalanishi va ruda hamda texnogen xom ashyolardan reniyni ajratib olish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

reniy tarkibli eritmaning SIM 202 sorbenti yuzasini "zaharlayotgan" moy izlari mavjudligi gravio- va IQ-spektral tahlili asosida aniqlanib, oksidlanish yo'li bilan ishlov berilganidan so'ng zaxarli moy izlari yo'qotilishi usuli "Olmaliq KMK" AJda amaliyotga joriy etilgan ("Olmaliq KMK" AJning 08.04.2024 yildagi 04-24/01-00431-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, reniyni sorbsiyalash uchun qimmatbaho import qatron Purolite SIM 202 ning xizmat muddatini uzaytirish imkoniyati yaratilgan;

reniy sorbsiyasi eritmasini ozonlash, vodorod peroksidi qo'llash va elektrooksidlash usullari yordamida qorishmalarni organik moddalardan tozalash texnologiyasi "Olmaliq KMK" AJda amaliyotga joriy etilgan ("Olmaliq KMK" AJning 2024 yil 8 apreldagi 04-24/01-00431-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, adsorbent yuzasida reniyning yanada to'liq sorbsiyasiga nisbatan faollashtirish

imkonini bergan;

SIM 202 smolasida sorbsiyalanmaydigan past oksidlanish darajasidagi reniyning mavjudligini istisno qiluvchi Re(VII) shaklidagi reniyni barqarorlashtirish texnologiyasi “Olmaliq KMK” AJda amaliyotga joriy etilgan. (“Olmaliq KMK” AJning 08.04.2024 yildagi 04-24/01-00431-son ma’lumotnomasi). Natijada, reniyni sorbsiyalash samaradorligi 97-98 % ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan 5 tasi respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 110 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, uning maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqotning ob’ekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi bayon etilgan, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Suv va texnologik eritmalarni tozalashning istiqbolli usullari**” deb nomlangan **birinchi bobida** texnologik eritmalarda organik birikmalarning oksidlanish destruksiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlili keltirilgan. Ozonlash va elektrokimyoviy yondashuv ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, ular sarflanadigan materiallarga ehtiyoj yo‘qligi bilan ajralib turadi. Metall chiqindilarning anodli erishi ham qiziqish uyg‘otdi. Nashrlarning sharhi va ularning tanqidiy tahlili asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning “**Reniy ionlarini sorbsiyalash va reniy tarkibli chiqindilarni eritish usullari va qurilmalari**” deb nomlangan **ikkinchi bobi** molibdenli sanoat mahsuloti (MSM) ob’ektining tavsifiga bag‘ishlangan. Tarkibi (foizda): Mo 41,8; Re 0,073; Cu 1,57; P 0,009; Sb 0,025; WO₃ 0,05; S 25,2; SiO₂ 10,80; Au 38 g/t, Ag 62,4 g/t, MSM kuydirish pechi skrubberidan olingan reniy tarkibli absorbat va metall sanoat chiqindilari. Namunalar tahlili quyidagi usullar yordamida o‘tkazildi: ICP (ICP-Agilent 7500); IQ-spektral tahlil: UR-20 (700-3600 sm⁻¹), termotahlil - Paulik-Erdey; sirt nazorati - SEM-EDS. EVO-MA (CarlZeiss Group). JCM-6000 Neoscope II; XRD Empyrean difraktometri. Oksidlanish-qaytarilish potentsiali (OQP) EV-74 va PI-50-1 potentsiometrlarida o‘lchab chiqildi. Eritmalarda organik moddalarni destruksiyalash uchun tajriba qurilmalari, Re-metall chiqindilarini qayta ishlash uchun elektroliz vannalari

qo'llanildi.


Dissertatsiyaning “**Reniy tutgan mahsulot eritmasini nazorat qilinadigan oksidlanish-qaytarilish potentsiali ostida organik aralashmalardan tozalash**” deb nomlangan **uchinchi bobida** mahsulot eritmasini organik aralashmalardan tozalash usulini ishlab chiqish natijasi bayon etilgan. Yuqori OQP tufayli O₃ ozon N₂O₂ bilan bir qatorda moylarni suvda parchalashda samarali hisoblanadi. Reagentlarga nisbatan, ularni elektr oksidlashda kamroq xarajat talab etadi. Mahsulot eritmasining organik moddalar bilan ifloslanish manbalari o'rganildi: flotatsiya moyi, boyitish bosqichida va nodir metallarni qayta ishlash sexi (NMQIS) nasoslaridan chiqadigan moylar.

Suv bug'i yordamida MSMni flotomoyidan dastlabki tozalash


Past sifatli molibden sanoat mahsulotlari flotatsiya jarayonida tarkibidagi 4-7% moylari MSMga utadi.

MSMni flotomoyidan dastlabki tozalash vazifalari qo'yilgan edi. Uni hal qilish uchun sanoat mahsulotlaridan flotomoyini vakuumda, suv bug'i oqimida olib tashlash usuli ishlab chiqilgan. Jarayon maydoni 170 sm² va ish hududining balandligi 50 mm bo'lgan haydash apparatida, ±3°S aniqlik bilan havo termostatida, past vakuumda 20-50 mm.suv.ust.da olib borildi. Flotomoy bilan MSM namunasi 50 g ni tashkil etdi. Harorat va bug' massalarining nisbati hamda jarayon davomiyligining flotomoyini yo'qotish darajasiga ta'sir etish qonuniyatlari o'rganildi. 1-rasmda haroratning ortishi ni moydan tozalash darajasining oshishiga olib kelishi ko'rsatilgan. Berilgan harorat va bug' berish sharoitida ushlab turish vaqtining ortishi MSMni flot moyidan tozalash darajasining yuqori qiymatlar sohasiga siljishiga olib keladi. MSMni qayta ishlashning maqbul sharoitlari: harorat 240-250 °C, vaqt 2 soat.

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, tizimga kiritilayotgan bug' miqdorining oshishi flot moyining haydab chiqarilishini ko'paytiradi, biroq amaliy nuqtai nazardan bug'ning MSMga nisbatan massa nisbati (0,5-1):1 oralig'ida yetarli hisoblanadi. Shuningdek, haydash qurilmasida MSM qatlamining 5-50 mm oralig'ida o'zgarishi flot moyini tizimdan chiqarib yuborish darajasiga ta'sir ko'rsatmaydi.



1-rasm. Molibden mahsulotidan flotatsiya moyini ajratib olish darajasiga (ε) haroratning ta'siri. Jarayon davomiyligi, soat: I - 0,5; II - 1,0; III - 1,5; IV - 2,0. (MSMga nisbatan bug'ning massa nisbati 1:1)



2-rasm. MSMdan flotomoyini ajratib olish darajasining (ε) suv bug'i miqdoriga bog'liqligi. Belgilar: jarayon davomiyligi, soat: 1 - 1, 2 - 2; harorat: (a) - 200 °C, (b) - 250 °C.

1-jadvalda MSMni flotomoyidan tozalash natijasi keltirilgan: undagi qimmatbaho metallar miqdori MSMda mavjud bo'lgan flot moyi va namlikning ulushiga ko'paygan. Flotomoyini termik yo'q qilish jarayoni moyning tabiatini va uning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'zgartirmasligi aniqlangan. Haydash jarayonida flot moyi sovitish tizimidan o'tgach, kondensatsiyalanadi va suv yuzasida to'planadi. Sulfidli mis-molibden rudalarini flotatsiyalashning selektiv siklida amaliy qayta tiklanganidan so'ng uning qayta ishlatilishi, bunday foydalanishga yaroqli ekanligini tasdiqladi.

Flotomoydan tozalash darajasiga 97% ga erishish uchun jarayonni 20-50 mm suv ustuni vakuumida, bug'ning MSMga nisbati 1:1 bo'lgan holda, 250 °C haroratda, 2 soat davomida olib borish kerakligi aniqlandi.

NMQIS Reniy sorbentining sorbsiyasi mahsulot eritmasidagi xususiyatlari

Mavzuga qiziqish NMQISda reniy ajralib chiqishining pasayishi bo'yicha salbiy tendensiya tufayli yuzaga keldi. Bu eritmada organik tarkibiy qism mavjudligini taxmin qilishga asos bo'ldi. Namuna minimal statik almashinuv sig'imini - 5,8% ni ko'rsatdi (1-jadval). Reglamentga ko'ra, eritma tarkibi quyidagicha (g/l hisobida): H₂SO₄ 320; Re 0,69; Mo 5,6.


1-jadval


Moy ajratilishidan oldin va keyin MSM tarkibi, komponentlar bo'yicha, foiz hisobida

Tarkibi	Boshlang'ich konsentrat	Flotomoy olib tashlangandan keyingi konsentrat	+ o'sish - pasayish
Mo umum.	40,11	42,75	+2,64
Mo oksid.	0,00	2,02	+2,02
S umum.	30,63	32,41	+1,78
Cu	0,20	0,21	+0,01
SiO ₂	0,93	0,98	+0,05
Pb	0,80	0,85	+0,05
Fe	0,49	0,52	+0,03
MgO	3,82	4,07	+0,25
Re	0,047	0,049	+0,002
Moy namligi	6,21	0,19	-6,02
Moy	5,08	0,17	-4,91

Tadqiqotning maqsadi SIM 202 Purolite smolasida eritmada organik birikmalarning Re (VII) sorbsiyasiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Eritma namunasi IQ-spektral tahlilga o'tkazildi (3-rasm).





3-rasm. Dastlabki eritmaning IQ-spektrlari (yuqori), 1 soat ozonlashtirishdan so‘ng (o‘rta), 6 soat ozonlashtirishdan keyin (quyi)

Mahsulot eritmalaridan Re(VII) ionlari bilan to‘yintirilishidan oldin tayyorlangan sorbentning holati vizual baholanishi amalga oshirildi.

Turli omillarning qatronga ta‘hiri natijasida adsorbentning sorbsion qobiliyatiga bo‘lgan oqibatlar, “SOE” birliklarida, baholandi (1-jadval).

1-son-model eritmada olingan “SOE”, lekin organik komponent va aralashmalarsiz (uning SAS qiyosi nuqta sifatida qabul qilingan); 2-son - Re(VII) ionlarini taxminan +5 oksidlanish darajasigacha qaytaruvchi Na₂SO₃ qo‘shilgan model eritmada olingan “SOE”. Bu effekt SIM 202 Purolite smolasining ishlatilishi davomida “SOE” (smola almashinuv sig‘imi) ning pasayishini tushuntiradi. Bunga sabab eritmada Re birikmalarining yuqori darajada oksidlanmagan holda mavjudligidir.

2-jadval ma‘lumotlari bu taxmini tasdiqladi. 3-namuna - smola petroley efiri bilan yuvilgandan so‘ng “SOE”: “SOE”ning past qiymati 4.1 eritmada yoki smola yuzasida organik modda mavjudligini tasdiqladi. 1-namuna - boshlang‘ich eritma, 2- va 3-namunalar esa - 1-namunaning mos ravishda 1 soat davomida ozonlash yoki 1 soat davomida kaliy permanganat bilan ishlov berishdan keyingi holati.

Taqqoslash uchun sulfat kislotadagi filtr qog‘ozi, 0-namunasi o‘rganildi. 4-namuna – flotatsiya jarayonida qo‘llaniladigan urchuq moyining namunasidir.

4-seriyada (1-jadval) sorbentni qayta tiklashda sirt faol moddalarning samaradorligi haqida ma‘lumotlar olindi. Smolani sirt faol modda eritmasi bilan bir marta yuvish “SOE”ni oshirishi, ikki marta yuvish esa uni kamaytirishi va smolaning parchalanishiga olib kelishi ko‘rsatildi.

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sirt faol moddalarning qo‘llanilishi sorbentni buzadi. Natijada, NMQIS ning organik moddalar bilan ifloslangan texnologik eritmalarini sorbentni oksidlovchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaga kiritmasdan ozonlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

2-jadval


Purolite SIM 202 ning statik almashinuv sig‘imi: tayyorlash bosqichidan to mahsulot eritmasidan Re(VII) ning sorbsion to‘yinishigacha bo‘lgan jarayon

No	Sorbsiya sharoitlari Re(VII)	“SOE”	Granula holati
1	Model eritmasidan	11,4%	Ko‘rinarli o‘zgarishsiz
2	Model eritmasidan +Na ₂ SO ₃	10,8	-
3	Smola petroley efiri bilan yuvilgan	6,2	-
4.1	Tayyorlanmagan qatron	5,8	-
4.2	1 marta yuvilgan SFM	7,7	-
4.3	2 marta yuvilgan SFM	6,5	Sorbentning buzilish

5	Dastlab ozonlangan eritma	9,2	Sorbentning buzilish
6	K ₂ MnO ₄ bilan ishlangan eritma	9,1	Qisman buzilish
7	N ₂ O ₂ bilan ishlangan eritma	9,2	Qisman buzilish

Mahsulot eritmasidan organik moddalarni yo‘qotish usulini tanlash.

Ma’lum oksidlovchilarning OQP qiymatlari taqqoslanganda, ozon va vodorod peroksid (-2,06 V) eng kuchli oksidlovchilar sifatida ajralib turadi. Ozon reniy eritmasida Re(VII) gacha oksidlaydi. Reaktorga kirish va chiqishdagi ozonning (%) o‘tishiga qarab eritmadagi organik moddalarni oksidlashda uning (OQP) samaradorligi aniqlandi (4-rasm).



4-rasm. OVP, mV (●) va O₃ o‘tib ketishi,%, (■) bo‘yicha vaqt bilan bog‘liqligi

Re (VII), Re (V) dan farqli o‘laroq, Purolite SIM 202 da sorbsiyalanadi. OQT va ozon o‘tkazuvchanligi ulushining vaqtga bog‘liqlik ko‘rinishi (4-rasm) gisterezis halqasini eslatadi. Dastlabki 25 daqiqada organik birikmalarning oksidlanishi samarali bo‘ladi, keyin jarayon sekinlashadi. IQ-spektr tahlili natijasida (3-rasm), dastlabki (yuqori spektr), ozonlangan (o‘rta) va ishlov berilgan KMnO₄ (quyi) eritmalari namunalaridan ko‘rinib turibdiki, O₃ va KMnO₄ bir xil samaradorlikka ega. Organik moddalardan tozalash uchun 60 daqiqalik ta’sir etish vaqti yetarli hisoblanadi.

Ozonlashning tajriba qurilmasi yaratildi (4-rasm). Ozon 4 dan magistral 8 ga, so‘ngra granular nasadkasi 10 bo‘lgan apparat 9 ga yuboriladi. Ozon soplajratuvchi 11 ga tushadi. Oksidlanadigan eritma 5-sig‘imdan kontakt apparati 9-ga uzatilib, 13 orqali 6-sig‘imga chiqadi, bu yerda OQP tomonidan nazorat qilinadi. Ozonatorga kirish va chiqishdagi O₂ bosimi: 1-3 MPa. Oksidlovchi 11 13-ga o‘tadi, 12-barbotyor esa oksidlovchining o‘tib ketishini aniqlash uchun ishlatiladi (3-jadval).


3-jadval

O₃ barbotlash jarayonida Re eritmalarning OQP ko‘rsatkichi

№1, 400 ml, kontaktli apparatsiz bez		№2, 100 ml, kontaktli apparat bilan	
Ye, mV	Vaqt, daq	Ye, mV	Vaqt, daq
400	0	400	0
430	4	480	5
470	13	520	9
500	28	580	13
570	68	700	17
670	79	800	22
970	88	960	24

860	86	1000	26
1150	98	1200	27


2-tajribada (3-jadval) 1-tajribaga nisbatan eritmani ozon bilan tozalash samaradorligini oshirishga diametri 3 mm bo'lgan kvarts bilan to'ldirilgan kontaktli apparat yordam berdi. Eritmaning relaksatsiya vaqti (6-rasm, a, b) va haroratning (6-rasm, v) OQPga ta'siri o'rganildi. Quydagi rejimlar qo'llanildi: eritma hajmi 400 va 100 ml, ozonatoridagi tok kuchi 30 mA, 10 kV kuchlanishda, ozonatorning ozon ishlab chiqarish unumdorligi soatiga 2,5 g bo'ldi. 1-eritma uchun pufaklanish vaqti 85 daqiqa, 2-eritma uchun esa 23 daqiqa davom etdi.



5-rasm. Ozonlash qurilmasi sxemasi.

Belgilanishlar: 1 - O₂ balloni, 2 - reduktor, 3 - rotametr, 4 - ozonator, 5 - bosimli sig'im; 6-qabul qilish sig'imi; 7-EV-74 ionomeri; 8- haydash magistrali, 9-kontakt apparati; 10-kvarts (granularlar); 11-keskich; 12 - O₃ ning o'tib ketishini nazorat qilish; 13 – gaz chikish quviri

Jarayon tugagach (20 °C), ortiqcha O₃ eritmani qaynatish (10 daqiqa) yoki qaytaruvchi modda - ammoniy sulfid qo'shish orqali yo'qotildi. Uglevodorodlar miqdori quyidagi usullar yordamida aniqlandi: 1) arbitraj usuli - sezgirligi 0,0005% bo'lgan petroley efiri bilan ekstraksiya qilish (gravimetrik) va 2) sezgirligi 0,000002% bo'lgan infraqizil spektroskopik usul.



6-rasm. Eritma OQP o'zgarishining bog'liqliklari (chapdan o'ngga): 0-60 daqiqa davomidagi relaksatsiya vaqti (O₃ barbotlash to'xtatilgan vaqtdan boshlab), (a), 0-12 soat davomidagi relaksatsiya vaqti, (b), Harorat (v).

Organik moddalarning oksidlovchi destruksiya usullari natijalarining tahlili.

Reni tarkibli eritmani ozon, vodorod peroksid hamda elektrooksidlash qurilmasining ish mahsulotlari bilan to'yintirishda uning OQP vaqt o'tishi bilan o'zgarish qonuniyati aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Organik moddalarning turli usullar bilan oksidlanish kinetikasini taqqoslash

Parametr	Organo-pollyutantning to'liq destruksiyasigacha bo'lgan oksidlovchi va usul					
	e/oksidlanish	H ₂ O ₂	O ₃ /O ₂ barbotaj qilish			
Vaqt, daq	50	50	0	17	38	50
OQP, mV	-	1080	400	750	840	1100


U maksimal OQP qiymati 1200 mV bilan tavsiflanadi. Unga erishish vaqti eritmaning ozon bilan to‘yinish tezligiga bog‘liq: 100 ml - 23 min, 400 ml - 83 min. OQP qiymatining dastlabki 400 mV gacha pasayishiga quyidagi kompleks usulda erishildi: a) qaynatish orqali 5 daqiqa davomida 1200 mV dan 650 mV gacha, b) ammoniy sulfit bilan neytrallashtirish orqali 15 daqiqa davomida 650 mV dan 400 mV gacha.

Uglevodorodlarni permanganat ionlari, ozon, vodorod peroksid bilan va elektr oksidlash usuli yordamida oksidlashning qiyosiy samaradorligi eritmalarning infraqizil spektroskopiyasi va organik qoldiqlarni petroley efiri bilan ekstraksiya qilish orqali baholandi (5-jadval). Ushbu usullarning bir xil samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

5-jadval

Organik birikmalarni petroley efirida ekstraksiya qilish (250 ml hajmli namunalarda) va 1-3-sonli namunalardagi IQ-spektrlarni tahlil etish [163, S. 1-236].

Qutbsiz organik birikmalarning tarkibi (moy), mg/l		
1-Dastlabki eritma	2-eritma, 2 soat ozonlashdan so‘ng	3-eritma, KMnO ₄ ni oksidlashdan keyin
8,6±0.52	< 1,3 ± 0,68	< 1,3 ± 0,70



7-rasm. Eritmani organik aralashmalardan tozalashning texnologik sxemasi.

Belgilanishi: 1 - bosim sig‘imi, 2 m³; 2 - kontakt apparati - kolonna, 1000 l; 3 - ozonator; 4 - deozonlash reaktori (sig‘imi, 105 °C qizdirish); 5 - toza eritmani to‘kish sig‘imi; 6 - markazdan qochma nasos; 7 - kolonnadagi bosimni tekislash patrubogi; 8 - apparatda emulsion rejim uchun "o‘rdak"; 9 - neytrallashtirgich O₃, 100-150 l; 10 - O₃ ni uzatish patrubogi (teflon); 11 - EV-74 ionomeri, UAV nazorati; 12 - to‘kish jo‘mrangi; 13 - jo‘mrang.

Ozon ($E^{\circ}=+2,42$ B) eng kuchli oksidlovchilardan biri ekanligi, hatto permanganatondan ($E^{\circ}=+1,695$ B) ham kuchliroq bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Re-tarkibli eritmani ozonlash tugagandan so‘ng, ozon qaynatish bilan parchalanadi deb taxmin qilingan. Biroq, bu jarayon 30 daqiqa davomida faqatgina OQPning 1180 dan 600 mV gacha pasayishiga olib keldi (6-rasm va 5-jadval), bu esa Re(VII) peroksid birikmalarining hosil bo‘lishi bilan bog‘liq. Ozon Purolite SIM 202 sorbentiga zarar yetkazadi. O₃ni neytrallashtirishni qaytaruvchi bilan olib borish maqsadga muvofiqdir. Permanganatning kamchiligi shundaki, u eritmaning marganes dioksidi va K⁺ ionlari bilan ifloslanishiga olib keladi.

Harorat va barbotlangan havo-gaz aralashmasidagi konsentratsiyaga bog'liq ravishda distillangan suvdagi ozon miqdorining o'zgarishi

Gaz aralashmasidagi ozon konsentratsiyasi	O ₃ ning suvda eruvchanligi, mg/l, harorat 5-20°C bo'lganda [165, S. 88]			
	5°C	10°C	15°C	20°C
1,5%	11,09	9,75	8,40	6,43
2,0%	14,79	13,00	11,19	8,57
3,0%	22,18	19,50	16,79	12,86

Organik birikmalarni destruksiyalash samaradorligi. Suvdagi O₃ konsentratsiyasining haroratga bog'liqligi 6-jadvalda keltirilgan.

Eritmaning ozonlanish jarayoni davomida OQPning o'zgarishi (1-tajriba)

Vaqt, daq	OQP, mV						
0	350	26	431	12	400	62	495
1	380	27	435	13	405	67	510
2	385	28	436	14	408	72	610
3	390	29	440	15	410	77	710
4	390	30	440	16	412	79	810
5	395	31	440	17	415	80	910
6	397	32	440	18	416	82	1000
7	398	35	440	19	418	87	1100
8	398	40	460	20	420	92	1150
9	400	48	470	21	421	94	1160
10	400	49	470	22	425	97	1165
11	400	53	480	23	427	101	1170

Ishlanmaning sanoat sinovlari. Kombinatda, Purolite SIM 202 smolasida Re (VII) -ionlari konsentrlanadi, mahsulot eritmasini organik aralashmalardan tozalash uchun quyidagi sxema bo'yicha ozonlash usuli qo'llanildi (7-rasm). Mavjud 4-reaktorga, tub ventilidan yuqorida, berkitish ventili orqali eritmani 5-bosimli idishga haydash uchun 6-markazdan qochma nasos ulandi. Undan eritma 2-nasadkali kontakt ustuniga uzatildi. 7 va 8 orqali atmosfera bilan bog'lanish tufayli, ustun emulsiya rejimida ishladi, bu esa ozonning 3 dan 10-quvur orqali ustunning pastki qismidagi shtutserga haydalanishini ta'minladi. Ozondan foydalanish samaradorligi 90% ga yaqin. Qoldiq ozonli gaz kolonnaning yuqori qismidan neytrallash 9 ga, so'ngra atmosferaga yo'naltirildi. Bosimli sig'imda eritma tugagandan so'ng, ozonni barbotlash davom ettirildi (7-jadval). Ozonlash (7-jadval) va permanganat (8-jadval) texnologiyalarida OQPning o'zgarish dinamikasi taqqoslandi.

So'ngra eritma qoldig'i 13-ventil orqali to'kildi va reaktorda aralastirildi. 11-ionomer yordamida OQP nazorati amalga oshirildi (7-jadval). Agar uning qiymati 1100 mV dan yuqori bo'lsa, u 6-nasos bilan yana

sig'imga haydaldi, shundan so'ng operatsiya takrorlandi. OQP 1100 mV ga yetgandan so'ng eritma 90°C gacha qizdirilib, unga OQP 450-500 mV gacha bo'lguncha qaytaruvchi kiritildi. Eritma sovutildi va 5-filtrga hamda ReO_4^- sorbsiyasiga, 12-liniyaga yo'naltirildi.

8-jadval

Eritmani KMnO_4 bilan ishlov bergandagi OVP ko'rsatkichi (2-tajriba)

Vaqt, daq-son	OQP mV	T, °C	Vaqt, daq-son	OQP mV	T, °C	Vaqt, daq-son	OQP mV	T, °C
0	1175	25	11-06	960	25	20-29	750	25
01-50	1160	25	12-00	950	25	28-00	740	25
03-00	1140	25	14-30	900	25	32-59	730	25
07-00	1100	25	17-00	820	25	40-30	715	65
09-30	985	25	18-02	800	25	70-55	570	80

9-jadvaldan muvofiq, texnologik eritmani organik ifloslanishlardan eng to'liq tozalash 8 soat davomida ozonlash orqali ta'minlanadi. "Olmaliq KMK" AJ ning Mis eritish zavodidagi NMQIS sexida AR-00, AR-0, AR-1 markali ammoniy perrenat (GOST 31411) ishlab chiqariladi.


9-jadval

Eritmadagi qutbsiz uglevodorodlarning qoldiq miqdori, mg/l

Organik moddalardan tozalangan eritma	Qutbsiz uglevodorodlar, mg/l
8 soat O_3 bilan ishlov berilgandan so'ng	1,34±0,12
1 soat $\text{O}_3+\text{Na}_2\text{SO}_3$ bilan ishlov brilgandan so'ng	2,02±0,08
12 soat KMnO_4 bilan ishlov brilgandan so'ng	1,36±0,32

Tarkibida Re mavjud bo'lgan mahsulot eritmasini tahlil qilish natijasida unda Purolite SIM 202 smolasi yuzasini "zaharlayotgan" flotatsion yog'i yoki "nasos" moylarining izlari mavjudligi aniqlandi. Eritmaga oksidlovchi ishlov berilgandan so'ng, moy izlari topilmadi. Bu esa sorbent resursini uzaytirish imkoniyati yaratildi. Texnologiya Re (VII) -ionlarini yuqori oksidlanish darajasida stabilizatsiyalaydi, reniyni sorbsiyalash samaradorligini oshiradi.

Dissertatsiyaning "Sanoat chiqindilaridan boshqariladigan anod potentsiali ostida reniy regeneratsiyasi" deb nomlangan to'rtinchi bobida W-Re qotishmasi chiqindisini nazorat qilinadigan oksidlanish potentsiali (NOP) elektrolitida anodli eritish orqali kam eriydigan KReO_4 ni cho'ktirish usuli bilan qayta ishlashning taklif etilgan usuli tavsifi berilgan. Ishlatilgan volfram tarkibli eritmalar "O'zTMK" AJning gidrometallurgiya sexida ammoniy paravolframmat ko'rinishida volframni ajratib olish uchun yo'naltiriladi. Hajmi 30 litr bo'lgan zanglamaydigan po'latdan yasalgan ikkita vanna NOP elektroliti bilan 2/3 qismigacha to'ldirildi. Katod zanglamaydigan po'latdan, anodlar esa W-Re chiqindilaridan iborat. Jarayonning optimal rejimi quyidagicha aniqlandi: NOP konsentratsiyasi 300 g/l; tok zichligi 20-22 A/dm²; harorat 75 °C.



8-rasm. Molibden-reniy (MR-47) va volfram-reniy (VR-20) qotishmalari chiqindilarini qayta ishlashning prinsipial texnologik sxemasi

W-Re chiqindisi bo'yicha balans hisoblandi, 790 g W-Re qotishmasidan 730 g eritmada ishlatildi, qoldiq massasi - 60,0 g, Re ulushi 27%. Tok zichligi 21 A/dm² va kuchlanish 11,5 V bo'lganda jarayon 18,4 soat davom etdi. Elektrolitda NOP konsentratsiyasi 230 g/l dan past bo'lmagan korreksiyalash yo'li bilan ushlab turildi. 100 g W-Re eritish uchun sarflanadigan elektr energiyasi 1,32 kVt-soat, NOP ishqor - 120 g. KReO₄ shلامي massasi 239,0 g bo'lgan ammoniy perrenat (APR) ga qayta ishlandi. W-Re qotishmasidan reniy chiqishi 84,2% ni tashkil etdi. Mo- Re qotishmasi bo'yicha balansni hisoblash uchun 1350 g aralashmaning boshlang'ich massasidan 1285 g anod eritilgan: 950 g Mo-Re qotishmasi (Re 33%) va 400 g qotishma (Re 47%), ikkala namuna ham qattiq fazadan olingan. Tok zichligi 40-45 A/dm² va vanna klemmlaridagi kuchlanish 6-7 V bo'lganda, eritish jarayoni 20 soat davom etdi. Elektrolitdagi NOP konsentratsiyasi tuzatishlar yordamida 240 g/l darajasida saqlab turildi. Namunaning massasi 65,0 g.

100 g Mo-Re eritish uchun sarf-xarajatlar: elektr energiyasi - 0,92 kVt-soat, ishqor - 160 g NOP. 621,9 g KReO₄ cho'kmasi ammoniy perrenatga qayta ishlandi, W-Re qotishmasidan reniyning unumdorligi 86,1% ni tashkil etdi. W-Re va Mo-Re chiqindilaridan Re yo'qotilishi elektrolit namunalarini olish, elektroliz vannasining katod zonasidan gazlar (vodorod) bilan olib ketish, qayta taqsimlashdagi xatolar bilan bog'liq. Vanna anod zonasida hosil bo'lgan KReO₄ ning yaxshi erimasligi sababli cho'kmaga tushishi va filtrda ajralishi ko'rsatildi.

Elektroliz qurilmasining xarakteristikasi.

Hisoblash ko'rsatkichlari: 6 soat ichida tarkibida yuqori tozalikdagi 1 kg ammoniy perrenat olish uchun yetarli bo'lgan reniy qotishmasi miqdori eritiladi. 1

kg APR olish uchun elektrolitda 0,6943 kg metall reniyni eritish talab etiladi, buning uchun $0,6942 \cdot 100/47 = 1,4772$ kg MR-47 yoki $0,6943 \cdot 100/20 = 3,4715$ kg VR-20 eritiladi. Bunda elektrolitga reniy bilan birgalikda mos ravishda 0,7829 kg molibden yoki 2,7772 kg volfram o'tadi. Shunday qilib, quyidagilarni elektrokimyoviy yo'l bilan eritish zarur bo'ladi:

$$1000 \frac{0,6943}{26,6} + \frac{0,7829}{15,99} = 26,1 + 48,96 = 75,06 \text{ г} - \text{ЭКВ}$$

metall qotishmasi MR-47 yoki

$$1000 \frac{0,6943}{26,6} + \frac{2,7772}{30,54} = 26,1 + 90,94 = 117,04 \text{ г} - \text{ЭКВ}$$

VR-20 qotishmasi. Ko'rsatilgan miqdordagi g-ekv metallni elektrokimyoviy eritish uchun quyidagi elektr miqdori talab qilinadi: MR-47 qotishmasi uchun; $75,06 \cdot 26,8 = 2012$ A-soat; VR-47 uchun - $117,04 \cdot 26,8 = 3137$ A-soat. MR-47 va VR-20 eritmasida tok bo'yicha chiqish 100% ga yaqin. Uni 95% deb qabul qilamiz. Qurilmaning 6 soat ishlashida quyidagi ta'minot zarur: $2012/6 \cdot 0,95 = 353$ A MR-47 uchun va $3137/6 \cdot 0,95 = 550$ A VR-20 qotishmasi uchun.

Elektroliz qurilmasining shinalaridagi kuchlanish har ikkala holatda ham 12 V ga teng deb hisoblanadi. Qurilmaning 6 soat uzluksiz ishlashi davomida MR-47 qotishmasini eritish uchun $353 \cdot 12 \cdot 6 = 25,4$ kVt-soat, VR-20 ni eritish uchun esa $550 \cdot 12 \cdot 6 = 39,6$ kVt-soat elektr energiyasi sarflanadi. To'g'rilagich 12 V va tok yuklamasining rostlanadigan qiymatlari 300 dan 600 A gacha (maksimum). Anodning silindr va to'rsimon shaklida katod anodga nisbatan konsentrik ravishda joylashadi. Anod tokini 5000 A deb qabul qilamiz. U holda anodning ko'rinadigan ish yuzasi $600/5000 = 0,12 \text{ m}^2 = 1200 \text{ sm}^2$. Elektrolit ustunining balandligini $h=20$ sm deb hisoblaymiz. Anod silindrining diametri $d=20$ cm ifodadan topiladi. Anod silindrining S_A kesim yuzi 314 sm^2 ga teng. Katod silindrining diametri 25 sm.

Katodli silindr S_A ning kesim yuzi 490 sm^2 ni tashkil qiladi. Elektrolitning harorati $50-60^\circ\text{S}$ oralig'ida saqlanishi kerak. Ish rejimi davriy bo'lib, 6 soatlik yuklanishni tashkil topadi. Elektroliz jarayonida konsentratsiyasi kamayib boradi. 1 kg MP-47, VR-20 qotishmalarini 1,2 kg eritish uchun NOP solishtirma sarfini qabul qilamiz. Elektrolitda 6 soat davomida 0,6943 kg Re olish uchun 1,4772 kg MR-47 qotishmasi yoki 3,4715 kg VR-20 qotishmasini elektrokimyoviy yo'l bilan eritish zarur. NOP sarfi MR-47 suyuqlanmasi uchun $1,4772 \cdot 1,2 = 1,78$ kg, VR-20 qotishmasi uchun esa $1,4715 \cdot 1,2 = 4,17$ kg. Elektroliz jarayonida Re 5°C haroratda kaliy perrenat ko'rinishida eritmaga o'tadi. Aylanayotgan elektrolitning hajmi 10 l. NOP eritmasining boshlang'ich konsentratsiyasini 7 M (mirole), ya'ni 392 g/l qilib belgilaymiz. MR-47 qotishmasini eritish jarayoni oxirida NOP konsentratsiyasi 374 g/l ga, VR-20 qotishmasini elektrokimyoviy eritishda esa 350 g/l ga yetadi.

Elektroliz jarayonida elektrolit kaliy molibdat yoki volframat bilan boyitiladi. Elektrolitda ularning konsentratsiyasi 200-300 g/l ga yetgandan so'ng, elektrolit qayta ishlash uchun "O'zTMK" AJ sexga yuboriladi. Elektrolitdan ajratib olingan va yuvilgan kaliy perrenat cho'kmasi 50°C gacha isitilgan suvda eriydi.

Kaliy perrenatning eruvchanligi 30 g/l ni tashkil etadi. Reniy 0,6943 g-ekv - $0,6943 \cdot 289,31 =$ kaliy perrenatida 201 g tashkil etadi. 201 g uchun $201/30 = 6,7$ l eritma tayyorlandi va u $W=0,05$ sm/sek tezlik bilan kolonkadan o'tkazildi. Oqim $VC=1$ sm³/sek, Purolite C 100 ning dinamik sig'imi $Ye=1,63$ mg-ekv/sm³ ga teng. Kolonka kesimining yuzi $1/0,05=20$ sm² ni tashkil etadi. Qatronning hajmi 588,8 sm³ ga teng. 1 kg APR uchun iqtisodiy samaradorlik 500 USD/kg ni tashkil etadi.

XULOSA

Reniy tarkibli tizimlarning holatini, ularning turli sharoitlarda oksidlanish kimyoviy va elektrokimyoviy o'zgarishlari tezligini belgilovchi qonuniyatlarni tadqiqot boshlang'ich nuqtasi sifatida olib, nodir metallar gidrometallurgiyasining ustuvor yo'nalishlariga mos keluvchi quyidagi masalalar yechildi:

1. Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining Nodir metallarni qayta ishlash sexida ishlab chiqarayotgan texnologik reniy saqlovchi eritmani organik ifloslantiruvchi birikmalardan tozalash jarayoni ishlab chiqildi va laboratoriya sharoitida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan.

2. O'rganilgan usullar (reagentli - kaliy permanganat, vodorod peroksid, ozonlash, shuningdek elektroksidlash) ko'rsatkichlarini taqqoslaganda, ko'rsatib o'tilgan texnologik eritmadagi organik aralashmalarning oksidlanish yo'li bilan parchalanishi taxminan bir xil samaradorlik bilan sodir bo'lishi aniqlangan.

3. Permanganat texnologiyasida sorbsion tizimning kaliy ionlari va marganes dioksidi bilan ifloslanishi kuzatiladi, bu esa uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Sinovdan o'tkazilgan sxemalardan, kontakt apparati - absorpsion kolonnada ozonlash varianti eng maqbul hisoblangani. Mazkur usul ozon yordamida eritmalarini uglevodorodlardan tozalash samaradorligini uch barobar oshirish imkonini bergani bilan ajralib turadi.

4. Mahsulotli texnologik eritma, filtr qog'ozi va moylarning IQ-spektrlarini xos funksional guruhlar bo'yicha taqqoslash orqali, ushbu eritmaning sex nasos tizimi moyiga xos uglevodorodlar bilan ifloslanishi sifat jihatidan aniqlangan. Uni tozalash uchun ozonlash orqali uglevodorodli aralashmalarni oksidlab destruksiyalash texnologiyasi ishlab chiqildi va laboratoriya sharoitida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan. Texnologik eritmani tozalash Purolite SIM 202 reniy sorbsiyasi ion almashinuvchi smolasining xizmat muddatini uzaytirishni ta'minlagan.

5. W-Mo, W-Re va Mo-Re guruhlari qotishmalari ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash uchun elektrokimyoviy texnologiyalar ishlab chiqildi. Bunda o'yuvchi kaliy (konsentratsiyasi 6-7 mol gacha) asosidagi elektrolit eritmalarida tajribaviy laboratoriya sinovlari o'tkazilgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/05.05.2023.К/Т35.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТЕ ОБЩЕЙ И
НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ

ЭРНАЗАРОВ УМИД РУСТАМОВИЧ

**РАСТВОРЕНИЕ И КОНЦЕНТРИРОВАНИЕ РЕНИЯ ПОД
КОНТРОЛИРУЕМЫМ ОКИСЛИТЕЛЬНОМ ПОТЕНЦИАЛОМ**

02.00.19 – Химическая технология редких, благородных и радиоактивных элементов

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования. Науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.2.PhD/T5610.

Диссертация выполнена в Институте общей и неорганической химии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский. Русский. Английский (резюме) размещен на веб-странице Научного совета (www.ionx.uz) и Информационно-образовательном портале «ZIYONET» по адресу www.ziyonet.uz.

Научные руководители: **Гуро Виталий Павлович**
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Даминова Шахло Шариповна**
доктор химических наук, профессор
Шарафутдинов Улугбек Зиятович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский химико-технологический институт**

Защита диссертации состоится «02» декабря 2025г. в 14⁰⁰ часов на заседании Разового Научного совета DSc02/05.05.2023.К/Т.35.02. при Институте Общей и неорганической химии Академии наук Республики Узбекистан по адресу: 1000170. Г.Ташкент. ул. Мирзо Улугбека. 77-а.Тел.: (99871) 262-56-60. Факс: (99871) 2627990. E-mail: ionx@academy.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Институте общей и неорганической химии Академии наук Республики Узбекистан (зарегистрирована за №99) по адресу: 1000170. Г.Ташкент. ул. Мирзо Улугбека. 77-а. Тел.: (99871) 262-56-60.

Автореферат диссертации разослан «12» ноября 2025 г.
(реестр протокола рассылки №99 от 12 ноября 2025 г.).

Н.Х.Усанбаев

Председатель разового научного совета
по присуждению учёной степени, д.т.н., проф.

Ж.С.Шукуров

Учёный секретарь разового научного совета
по присуждению учёной степени, д.т.н., проф.

Ш.С.Намазов

Председатель разового научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степени, д.т.н., профессор, академик

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации на ученую степень PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире большое внимание уделяется исследованиям, направленным на переработку техногенного сырья, содержащего ценные компоненты, такие как соединения редких, рассеянных и цветных металлов. Рений обычно встречается в качестве сопутствующего элемента в медно-молибденовых рудах. Рений присутствует не только в процессе обогащения этих руд, но и в технологических шламах, образующихся в результате производства молибдена, а также в промышленных отходах, возникающих при производстве сплавов на основе вольфрама-рения (W-Re) и никеля-рения (Ni-Re). Глубокое извлечение рения из такого сырья и его полное освоение имеет важное научное и практическое значение.

В настоящее время в мире проводятся научные исследования по разработке эффективной технологии переработки ренийсодержащих медно-молибденовых руд и техногенных отходов. В этой связи особое внимание состоянию сорбента при взаимодействии с технологическим раствором и оценки его стабильности; снижению рабочего ресурса ионообменного сорбента в результате загрязнения раствора органическими соединениями, а также извлечению рения из промышленных отходов, образующихся при производстве ренийсодержащих сплавов.

На сегодняшний день в Республике достигнуты значительные результаты в теории и практике гидрохимических технологий переработки ренийсодержащего сырья. Разработка технологий полного извлечения рения из руд редких металлов, содержащих рений, а также из техногенного сырья имеет важное научное и практическое значение. Учитывая особенности технологии переработки молибденового промышленного продукта, необходимо провести глубокий анализ всех этапов переработки рудного сырья с точки зрения ресурсосбережения. К этим этапам относятся обжиг в окислительных условиях, селективное выщелачивание огарка и отделение кека. В третьем направлении стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи, направленные на «... продолжение реализации промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, увеличение объема производства промышленной продукции в 1,4 раза...»¹. В связи с этим актуальное и важное значение приобретает создание эффективных методов извлечения рения из местного сырья и устранение его потерь.

